



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
3. Nodira Toliboyeva O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
4. Гулчехра Дадамирзаева СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
5. Akmal Mengliboyev QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
7. Абдисаттор Қосимов ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
8. Sardorbek Rahimberdiyev TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
9. Shavkat Shapiyev FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
10. Diyora Chorshanbiyeva 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
11. Sitora Nosirova DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
12. Lutfillo Mamasaidov O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



Sitora Shuxrat qizi Nosirova,
Termiz davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi
sitora.nosirova.24@gmail.com

DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI

For citation: Sitora Nosirova. THE REPRESENTATION OF THE UZBEK FAMILY IN SOCIAL LIFE IN EPICS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18942426>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek oilasining vujudga kelishi va shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan. Mahalliy xalqning oilaviy-nikoh munosabatlari asosan islom dini aqidalariga suyangan holda shakllangan. Nikohning halolligi, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, katta-kichikka izzat, qarindoshlik rishtalarini saqlash kabi qoidalar oila mustahkamligini ta‘minlovchi muhim omil sifatida qaralganligi haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Alpomish” dostoni, “kampir o‘ldi”, “eshikdan kiraman”, “Oltin qovoq”, “Malla savdogar”, “Allanazar Olchinbek”, “Xomkon”, “Alpomish”, “Kelinoy”, “Kuntug‘mish”, “Oysuluv”, “Malla savdogar”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”.

В ЭПОСАХ ОТРАЖЕНИЕ УЗБЕКСКОЙ СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается возникновение и формирование узбекской семьи как длительный процесс исторического развития. Семейные и брачные отношения местного населения формировались главным образом на основе догматов ислама. Сообщается, что такие правила, как честность брака, взаимное уважение между членами семьи, уважение к старшим и младшим, а также сохранение родственных связей, считались важными факторами, обеспечивающими прочность семьи.

Ключевые слова: Эпическая поэма «Алпомыш», «Старуха умерла», «Войду через дверь», «Золотая тыква», «Малла Савдогар», «Алланазар Олчинбек», «Хомкон», Алпомыш, «Келиной», «Кунтугмыш», «Ойсулув», «Малла Савдогар», «Рождение Гороглу».

Sitora Shuxrat qizi Nosirova,
Termiz davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

THE REPRESENTATION OF THE UZBEK FAMILY IN SOCIAL LIFE IN EPICS

ABSTRACT

This article describes the emergence and formation of the Uzbek family as a long process of historical development. The family and marital relations of the local people were formed mainly based on the tenets of Islam. It is reported that such rules as the honesty of marriage, mutual respect between family members, respect for elders and younger, and the preservation of kinship ties were considered important factors ensuring the strength of the family.

Index Terms: The epic poem "Alpomish", "The old woman died", "I will enter through the door", "Golden Pumpkin", "Malla Savdogar", "Allanazar Olchinbek", "Khomkon", "Alpomish", "Kelinoy", "Kuntug'mish", "Oysuluv", "Malla Savdogar", "Birth of Goroglu".

1. Dolzarbligi:

Jamiyat taraqqiyoti davomida oilalar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarga qarab shakl va mazmun jihatdan turlicha ko'rinishga ega bo'lib borgan. Aholining yashash tarzi dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanishi, yer-mulkning hajmi, mehnat taqsimoti kabi omillar oila tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

2. Metodlar:

O'zbek ma'naviy eposi «Alpomish» dostonida keltirilgan nikoh marosimi bilan bog'liq udumlarni o'rganish asnosida asardagi «kampir o'ldi» udumi ramziy tarzda eski hayot bilan xayrlashib, yangi oilaviy bosqichga o'tish g'oyasini ifoda etgan. Shu orqali jamoa yangi oilani qabul qilgan, uning barqarorligi uchun ma'naviy kafolat yaratgan.

«Alpomish» dostonidagi marosimlar badiiy bezak emas, balki xalqning ko'p asrlik oilaviy va ijtimoiy tajribasining epik ifodasi hisoblanadi. Asar orqali nikoh nafaqat ikki yoshning birlashuvi, balki butun jamoa ishtirok etadigan ijtimoiy hodisa ekani, oila esa jamiyatning asosiy tayanchi sifatida qaralgani yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Tadqiqot natijalari:

Oilani kichik oila, bo'linmagan oila va katta oila kabi asosiy guruhlariga ajratish mumkin bo'lgan.

Kichik oila er-xotin va bolalardan tashkil topgan. Bunday oila shakli ko'proq hunarmandlar, shahar aholisi yoki alohida xo'jalik yuritish imkoniga ega bo'lgan yosh oilalarda uchragan. Ularda ro'zg'or yuritish, bola tarbiyasi va mehnat vazifalari asosan er-xotin zimmasiga tushgan, qarorlar ham mustaqil qabul qilingan.

O'zbek oilasi turli davr va sharoitlarda shaklan o'zgarib borgan bo'lsa-da, uning asosiy mazmuni avlodlar davomiyligi, o'zaro yordam, kattalarga hurmat va oilaviy birlikni saqlash kabi qadriyatlar doimiyligicha qolgan.

Bo'linmagan oila esa er-xotin, bolalar va er-xotinning ota-onalaridan iborat bo'lib, bir ro'zg'orda 10-12 kishi yashagan. Bunday oilada mulk umumiy hisoblangan, mehnat taqsimoti yosh va jinsga qarab belgilangan: kattalar rahbarlik qilgan, ayollar uy-ro'zg'or ishlarini bajargan, yoshlar esa xo'jalik ishlarida qatnashgan. Odatda oila boshlig'i eng katta erkak kishi bo'lib, u barcha masalalarni hal etgan.[2:31].

O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda kichik va bo'linmagan oilalar bilan birga katta patriarxal oila qoldiqlari ham saqlanib qolgan. Bunday oilalarda bir nechta avlod va bir nechta uylangan o'g'illar o'z bolalari bilan bir hovlida yashagan. Yer-mulk va chorva umumiy bo'lib, oila iqtisodiy jihatdan yagona xo'jalik sifatida faoliyat yuritgan. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylarda, dehqonchilik va chorvachilik ustun bo'lgan muhitda keng tarqalgan.

«Alpomish» dostonida keltirilgan udumlar, jumladan «kampir o'ldi» udumi oilaning va jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liqligini namoyon qiladi. Dostonda ushbu jarayon shunday bayon qilingan:

«Bahmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha ayollar «kampir o'ldi» bo'lib, o'lganiga bir narsa olib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqda o'tirib, oldiga dasturxon solib, qo'ylarning to'shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo'yib, ho'p yeb to'yib, kuyov navkarlarga topqi, ro'mol, sarmoya berib, hammasi o'z rasmi-qoidasini bajarib, kuyov navkarlar chiqib ketadi, bular ham o'z manzili joy-joylariga qarab ketadi».

Bu tavsifdan ko‘rinib turibdiki, kuyov kelin turgan xonaga kirishi uchun bir qator ramziy to‘siqlardan o‘tishi kerak bo‘lgan. Kelinxonaga yaqinlashganda, ayollar eshikni yopib, uni ichkariga kiritmagan. Kuyov «eshikdan kiraman» deganda bo‘ sagada yoshi katta, hurmat-e‘tiborga sazovor bir kampirni ko‘rgan. Uning yuzini ro‘mol bilan yopgan holda o‘tirgani kuyovni to‘xtatgan. Bu udum an‘anaviy tarzda «kampir o‘ldi» deb atalgan.

Bo‘ sag‘ada turgan kampir kuyovga xonaga kirishga ruxsat berguncha u ogohlik va ehtirom ramzi sifatida turibdi. Kuyov kampirga pul berganidan keyingina u o‘z o‘rnidan turgan va kuyov xonaga kirgan.

Bu udum nafaqat badiiy epik tasvir, balki o‘tmishdagi o‘zbek oilaviy marosimlarining ijtimoiy-etnologik xususiyatini ham aks ettiradi. U orqali kelin va kuyovning oilaning kattalaridan, jamoadan rozilik olishlari, uydagi qonun-qoidalarga rioya etishlari va oilaviy tarbiyaga bo‘lgan hurmat ko‘rsatilgan. Shuningdek, bu marosimdagi sovg‘a va ehtirom belgilarining barchasi - qo‘y to‘shi, ro‘mol, do‘ppi va sarmoya - jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va oilaviy birlikni rag‘batlantirish vositasi bo‘lgan[3:25].

Shu tariqa, «kampir o‘ldi» udumi nafaqat nikoh marosimidagi ramziy harakat, balki oila va jamiyatdagi ijtimoiy tartib, hurmat va birdamlikni o‘rnatuvchi an‘ana sifatida ahamiyatli sanalgan.

Xalq ijodining ijtimoiy hayotga doir qirralarini aks ettiruvchi dostonlar va og‘zaki ijod namunalari talaygina bo‘lib, ularning har biri o‘z davri va jamiyat hayotining tasvirini saqlab keladi. Shu dostonlardan biri Davrqul polvon dostonidir.

“O‘zbekiston xalq baxshisi” unvoniga sazovor bo‘lgan, Qiziriq tumani, Xomkon qishlog‘ida tug‘ilgan Abdunazar Poyonov xalq og‘zaki ijodining boy merosini yaratgan. U “Oltin qovoq”, “Malla savdogar”, “Allanazar Olchinbek”, “Xomkon”, “Alpomish”, “Kelinoy”, “Kuntug‘mish”, “Oysuluv”, “Malla savdogar”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Hasanxon”, “Oyparcha”, “Sanamgavxar”, “Ravshanxon”, “Rustamxon”, “Xondalli”, “Xonoyim pari”, “Tursun mergan”, “Davrqul polvon” kabi ko‘plab dostonlarni kuylagan. Har bir doston o‘zida jamiyat hayoti, mehnat faoliyati, oila va urf-odatlar, shuningdek ijtimoiy rollarni aks ettiradi.

Xususan, u yaratgan “Davrqul polvon” dostonida Boysunning tog‘li Xomkon qishlog‘ida voyaga yetgan Davrqulning Janubiy O‘zbekistonda mashhur polvonu chobag‘on sifatida dovuq solgani haqida hikoya qilinadi. Doston Davrqulning jasorati, mardligi, o‘z elining manfaatini himoya qilishi, shuningdek, jamiyatdagi oila, do‘stlik va mehr-oqibat tamoyillarini ifodalaydi.

Dostonda Davrqul polvonning qilgan ishlaridagi ijtimoiy mas‘uliyati, jamiyatdagi obro‘si, odamlar bilan munosabati orqali o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, odamlarning qadriyatlarini, urf-odatlarini, dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq turmush tarzlari tasvirlanadi. Masalan, Davrqulning chorvachilikdagi mahorati, polvon sifatidagi kuchi va jasorati qishloq aholisi orasida qadr-qimmatini oshirgan, uni jamiyatning yetakchi shaxslaridan biriga aylantirgan.

Shu tariqa, Davrqul polvon dostonida nafaqat jasorat va shaxsiy fazilatlar, balki xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat, oila va jamiyat bilan bog‘liq qadriyatlar ham badiiy shaklda ifodalangan. Bu esa xalq og‘zaki ijodining jamiyat hayotini saqlash va avlodlarga yetkazishdagi muhim rolini yana bir bor ko‘rsatadi.

Davrqul polvon dostonida o‘sha davr xalqining ijtimoiy hayoti va turmush tarzi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan, dostonida Davrqulning otasi Eshqurbon qizil askarlar tomonidan nohaq kaltaklanishi epizodi keltiriladi [1:3]. Unda tasvirlanishicha, Eshqurbonning tanasidagi qilich va qamchi urilgan joylar shilini, tilini, qon izi taram-taram bo‘lib shishib ketadi [4:17].

Xotini Uldona esa erining jarohatlarini davolashda xalq tibbiyotiga xos usullardan foydalangan. U sarimoyini yupqa qilib erining orqasiga bog‘lagan va bir oy ichida yaralar qora qo‘tir bo‘lib tuzalib ketgan [7:1]. Ushbu malham Surxon vohasi qishloqlarida hozirgi kungacha saqlanib qolgan xalq shifobaxsh an‘analari bilan bog‘liq. Masalan, kuygan yoki shikastlangan joyga sariyog‘ va tuxum sarig‘i aralashmasini surish orqali davolash amaliyoti hozir ham qo‘llaniladi [8:2].

Bu epizod nafaqat dramatik voqeani ifodalaydi, balki o‘sha davr oilasining turmush sharoitini, ayol va erkakning ijtimoiy va oilaviy rollarini ham ochib beradi. Xotin erining sog‘lig‘i

va farovonligi uchun jamiyatda mavjud bo'lgan davolash usullarini qo'llash orqali faol ishtirok etgan [9:1]. Shu bilan birga, bu marosim va davolash usullari xalq og'zaki ijodida o'ziga xos fenologik va tibbiy bilimlarni saqlab qolganligini ham ko'rsatadi [10:2].

Demak, doston orqali Surxon vohasi aholisi hayoti, ular yashash tarzidagi murakkab ijtimoiy munosabatlar, oiladagi mehnat taqsimoti, shuningdek, xalq davolash usullari va an'analari haqida boy ma'lumot olish mumkin. Bu esa dostonning nafaqat badiiy, balki tarixiy-ijtimoiy ahamiyatini oshiradi [5:34].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek oilasining vujudga kelishi va shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Mahalliy xalqning oila va nikoh munosabatlari asosan islom dini aqidalariga tayangan holda shakllangan, ammo ularning mazmuni va amaliyoti yashash sharoitlari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va hududiy urf-odatlar bilan mustahkam bog'langan. Nikohning halolligi, oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, katta-kichikka e'tibor, qarindoshlik rishtalarini saqlash kabi qoidalar oilaning barqarorligini ta'minlovchi asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Shu tariqa, oila nafaqat yashash va mehnat birligi, balki ijtimoiy-hayotning asosiy birligi sifatida jamiyatning turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga moslashgan.

Xalq og'zaki ijodida bu jarayonlarning aksini "Alpomish" va "Davrqul polvon" dostonlarida ham ko'rish mumkin. "Alpomish" dostonidagi "kampir o'ldi" udumi ramziy ma'noda eski hayot bilan xayrlashib, yangi oila bosqichiga o'tishni ifodalaydi. Shuningdek, "Davrqul polvon" dostonidagi epizodlar orqali o'sha davr Surxon vohasi aholisi hayoti, mehnat faoliyati, chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq yashash tarzini ko'rish mumkin [6:132].

4. Xulosalar:

Demak, xalq og'zaki ijodi nafaqat badiiy qimmatga ega, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, oilaning shakllanishi, jamiyat hayoti va qadriyatlarni saqlash, avlodlarga yetkazish jarayonini aks ettiradi. Dostonlar orqali avlodlar xalqning mehnat faoliyati, oila tuzilishi, urf-odat va ijtimoiy munosabatlari bilan tanishadi, bu esa xalq madaniy merosini boyitadi va tarixiy tajribani keyingi avlodlarga yetkazadi

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Давркул полвон (достон). Айтувчи: Абдуназар бахши Поён ўғли. - Тошкент. "Адолат", 2003.
2. Турсунов С.Н. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014.
3. Турсунов С. ва бошқалар. Сурхондарё – этнографик макон. – Т., «Академнашр», 2012.
4. Фозил Йўлдош ўғли. «Алпомиш» достони. – Т.: «Ғафур Ғулом», 1985.
5. Norbo'tayev P. Janubiy O'zbekiston aholisi etnik xususiyatlarining xalq dostonlarida aks etishi (Qashqadaryo vohasi dostonchilik an'analari misolida). Tarix fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023.
6. Файзуллаева М.Х., Кичкилов Ш.Х. Хомкон – тарихий этнографик маскан (этногенез, этник тарих ва этномаданият). – Тошкент: Замон-Полиграф ОК, 2022.
7. Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар. – Тошкент: YANGI NASHR, 2010.
8. Файзуллаева М. Сурхон воҳаси аҳолисининг таомлар билан боғлиқ анъана ва маросимлари (XX аср биринчи ярми). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2010.
9. Fayzullayeva M. O'zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati (Surxon vohasi materiallari asosida). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023.
10. Kichkilov Sh. Ko'hitang tog' qishloqlari aholisining ijtimoiy turmushida an'anaviylik va transformatsion jarayonlar. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2025.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000